

Товарlar yetkazib va o'rnatib berish xizmati bo'yicha

SHARTNOMA

2022 y. « 14 »

3-7-96-MNQ/2022son

Kattaqo'rg'on t.

Keyingi o'rinlarda "Ijrochi" deb nomlanuvchi "Baxora KBM " MCHJ Ustav asosida harakat qiluvchi rahbari A Ishmuxamedov orqali bir tomondan. keyingi o'rinlarda "Davlat buyurtmachisi" deb ataladigan Kattaqo'rg'on tuman Mahalla va Nuroniylarni qo'llab quvvatlash bo'limi nomidan o'zining nizomi asosida ish yurituvchi rahbari I.Nurmurodov ikkinchi tomondan quyidagilar to'g'risida ushbu shartnomani tuzdilar:

1. Shartnoma predmeti

1.1. Ijrochi mazkur shartnomaga ilova qilinayotgan va uning ajralmas qismi bo'lib hisoblanadigan tafsilotli ro'yxatda belgilangan miqdorda va muddatda tovar mahsulotni (keyingi o'rinlarda "tovar" deb yuritiladi) tayyorlab, yetkazib va o'rnatib berish majburiyatini oladi. Davlat buyurtmachisi esa yetkazib va o'rnatib berilgan tovarlar haqini belgilangan muddatda to'lanishini ta'minlash majburiyatini oladi.

1.2. Ijrochi Davlat buyurtmachisi bilan kelishgan holda Tovarni muddatidan oldin jo'natishga haqli. Muddatidan oldin yetkazib berilgan Tovar keying davrlarda yetkazib berilishi lozim bo'lgan tovarlar miqdoriga kiritiladi.

1.3. Shartnoma bo'yicha yetkazib va o'rnatib berilishi lozim bo'lgan tovarlarning tafsilotli ro'yxati.

Kattaqo'rg'on tuman Namozpolvon MFY binosining qurulish ob'yekti bo'yicha

	Наименование работ и материал	Единица измерения		цена	Без НДС	НДС	С НДС итого
1	Цемент М400, Робен	Тонна	13,6	580459	7894239,527	1184135,929	9078375,456
2	Щебен, красный песок, черный песок	М3	43,3	77124	3339464,654	500919,6981	3840384,352
3	УСТРОЙСТВО ПОДВЕСНОГО ПОТОЛКА ГИПСОКАРТОННЫМИ ПЛИТАМИ КНАУФ, ПРОСТОЙ СЛОЖНОСТИ	М2	100	19078	1907802	286170	2193972
4	ОКРАШИВАНИЕ ПОВЕРХНОСТЕЙ ПОТОЛКОВ ВОДОЭМУЛЬСИОННЫМИ СОСТАВАМИ: РАНЕЕ ОКРАШЕННЫХ ВОДОЭМУЛЬСИОННОЙ КРАСКОЙ С РАСЧИСТКОЙ СТАРОЙ	Тонна	1,336	4507283	6021730	903259	6924989
5	ЛАМИНИРОВАННОЕ НАПОЛЬНОЕ ПОКРЫТИЕ ТИПА PERGO	М2	100	60481	6048137	907221	6955358
6	УСТАНОВКА ПОДОКОННЫХ ДОСОК ИЗ ПВХ	ПМ	16,4	37344	612444,9094	91867	704312
7	УСТРОЙСТВО КРОВЛИ ИЗ ПРОФНАСТИЛА	М2	366	53256	19491724,94	2923758,741	22415483,68
8	УСТАНОВКА И СТОИМОСТЬ ОКОННЫХ БЛОКОВ ИЗ АЛЮМИНИЯ С ДВОЙНОЙ ДВУХКАМЕРНЫЙ СТЕКЛОПАКЕТАМИ	М2	13,5	588577	7945790,762	1191868,614	9137398,126

	ОСП15-18(18ШТ)						
9	УСТАНОВКА И СТОИМОСТЬ ДВЕРНЫХ БЛОКОВ МДФ	M2	12	503335	6040018,725	906002,8087	6946021,533
10	ДОСКИ ОБРЕЗНЫЕ ХВОЙНЫХ ПОРОД ДЛИНОЙ 4-6.5 М. ШИРИНОЙ 75-150 ММ. ТОЛЩИНОЙ 25 ММ, III СОРТА	M3	5,5	2739045	15064749,64	2259712,4	17324462,1
					74366101,61	11154915,24	85520755,6

2. Tovarning butlanishi va sifati

2.1. Yetkazib va o'rnatib berilayotgan tovarlar o'z sifati va butlanishi jihatidan Davlat GOST standartlari talablariga javob berishi shart.

3. Shartnoma bahosi va so'mmasi

3.1. Mazkur shartnoma bo'yicha yetkazib va o'rnatib berilayotgan tovarlarga taraflarning kelishuviga muvofiq shartnomada belgilangan narxlarga muvofiq haq to'lanadi.

3.2. Mazkur shartnoma bo'yicha yetkazib va o'rnatib berilishi lozim bo'lgan tovarlarning umumiy so'mmasi 85 520 755 .6 (Sakson besh million besh yuzi yigirma ming yitti yuz ellik besh) so'mni tashkil etadi.

4. Markirovka, idishlar va o'rash tartibi

4.1. Tovarlarni tegishli davlat standartlari va texnik talablariga javob beradigan va tashish hamda saqlash jarayonida ularning saqlanishini taminlaydigan (idishturi, konteyner, yashik, kartonqutivah.k) idishlariga joylashtirilishi lozim.

5. Hisob-kitob qilish tartibi

5.1. Yetkazib va o'rnatib berilayotgan tovarlar uchun hisob-kitoblar quyidagi tartibda amalga oshiriladi :shartnoma taraflar tomonidan imzolanib, g'aznachilik bo'linmasida majburiy ro'yxatga olingan kundan boshlab 20 bank ish kuni ichida "Davlat buyurtmachisi" shartnoma umumiy summasidan 30% miqdorida oldindan to'lash majburiyatini oladi, qolgan 70% ni tovarni olgandan so'ng 25 bank ish kuni ichida qabul qilish-topshirish dalolatnomasi, hisob-faktura va v.b. asosida to'laydi. "Ijrochi" avans mablag'lari o'zining tegishli hisob varag'iga kelib tushgan vaqtdan boshlab 10 bank ish kuni ichida tovarni yetkazib berish majburiyatini oladi.

6. Tovarni miqdori va sifati bo'yicha qabul qilish tartibi

6.1. Yetkazib va o'rnatib berilayotgan tovarlarni miqdori va sifati bo'yicha qabul qilish mahsulotlar (tovarlar)ni miqdori va sifati bo'yicha qabul qilish tartibi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

6.2. Tovarning miqdori va sifati bo'yicha kamchiliklari aniqlangan holda, qabul qilish natijalari dalolatnomalar bilan rasmiylashtiriladi.

7. Shartnomaning amal qilish muddati

7.1. Mazkur shartnoma taraflar tomonidan imzolanib, g'aznachilik bo'linmasida majburiy ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022-yil 31-dekabrgacha amal qiladi.

7.2. Shartnomaning amal qilish muddatini tugashi tomonlarni javobgarlikdan ozod qilmaydi

8. Taraflarning mulkiy javobgarligi

8.1. Tovarlarini tanlab olmaslik, shuningdek ijrochi shartnomada belgilangan muddatda (davrda) ularni yetkazib berganda tovarlarni olishni asossiz ravishda rad etganlik uchun davlat buyurtmachisi ijrochiga tanlab olinmagan (o'z muddatida olinmagan) tovarlar qiymatining 5 foizi miqdorida, tez buziladigan tovarlar bo'yicha esa — 10 foiz miqdorida jarima to'laydi.

8.2. Agar yetkazib va o'rnatib berilgan tovarlar sifati, assortimenti va navi bo'yicha standartlar, texnik shartlar, namunalarga (etalonlarga) qonun hujjatlarida yoki xo'jalik shartnomasida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, davlat buyurtmachisi tovarlarni qabul qilish hamda ularning haqini to'lashni rad etib, ijrochidan sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar tovarlar haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan so'mmani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir. Sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar yetkazib berganlik uchun jarima ijrochidan akseptsiz tartibda undirib olinadi.

8.3. Tovarlarini yetkazib va o'rnatib berish muddatlari kechiktirib yuborilgan, to'liq yetkazib berilmaganda ijrochi davlat buyurtmachisiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy so'mmasi yetkazib berilmagan tovarlar, bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni tovarlarni yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to'liq yetkazib bermaslik, oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

8.4. Marka belgisi qo'yilmagan yoki lozim darajada markirovka qilinmagan tovarlarni, shuningdek idishsiz yoki o'ralmagan tovarlarni yoxud tegishli idishga joylanmagan yoki lozim darajada o'ralmagan tovarlarni yetkazib berganlik uchun ijrochi davlat buyurtmachisiga bunday tovarlar qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi. Tovarlar qabul qilingandan keyin yana jo'natilishi yoki saqlanishi kerak bo'lgan hollarda sotib oluvchi jarima undirishdan tashqari, o'z kuchi bilan, lekin ijrochi hisobidan tovarlarni o'rashga va idishlarga joylashga, yoxud bir shahardagi ijrochidan tovarlarni o'rab berish yoki idishlarga joylab berishni talab qilishga haqlidir.

8.5. Yetkazib va o'rnatib berilgan tovarlar haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun davlat buyurtmachisi ijrochiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov so'mmasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov so'mmasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.

8.6. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan taraflarning javobgarlik choralari amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

9. Shartnomani o'zgartirish va bekor qilish tartibi

9.1. Ushbu shartnomaga kiritiladigan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar ular yozma ravishda rasmiylashtirilgan va taraflarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan taqdirdagina haqiqiy hisoblanadi.

9.2. Shartnoma faqat taraflarning kelishuviga muvofiq bekor qilinishi mumkin.

10. Nizolarni hal etish tartibi

10.1. Kelishmovchiliklar va bahslar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar, qoidaga ko'ra, mustaqil ravishda ularni sudgacha hal etish choralarini ko'radilar.

10.2. Tomonlar kelishmovchilik va bahslarni hal etish uchun bevosita sudga murojaat qilishga haqlidir.

10.3. Tomonlar sudga murojaat qilgan taqdirda, sud ishi da'vogar joylashgan manzildagi sudida ko'rib chiqiladi.

11. Fors-major

11.1. Fors-major natijasida majburiyatlarni bajarilmasligi holatlari kelib chiqsa va buholatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 15-fevralidagi 63-sonli "Yengib bo'lmaz kuch (fors-major) holatlarining mavjudligini tasdiqlash mexanizmini kiritish to'g'risida"gi qarorida ko'zda tutilgan shartlarda tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarilishidan ozod etiladi.

12. Korrupsiyaga qarshi shartlar

12.1.1. Tomonobu

12.1.2. Tomonlar, ularning kaffilangan (o'zaro bo'lmagan) shaxslari va xodimlari boshqa Tomonning xodimlari yoki vakolatlangan vakillarini qandaydir tarizda rag'batlantirishdan, shu jumladan pul summalari, sovg'alarni taqdim etish, ularning manziliga x'izmatlarini beg'araz ko'rsatish yoki bu xodim yoki vakolatlangan vakil tomonidan uni rag'batlantiruvchi Tomon foydasiga qandaydir xatti-harakatlarini harakatsizliklar bajarilishini taminlashga qaratilgan ishlarni bajarishdan voz kechadilar deb ma'lum qiladilar.

13. Qo'shimcha shartlar

13.2. Shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib, ikkalasi ham bir xil yuridik kuchga ega deb hisoblanadi va taraflarga bir nusxadan beriladi.

IJROCHI:	DAVLAT BUYURTMACHISI:
"Baxora KBM " MCHJ	Kattaqo'rg'on tuman Mahalla va Nuroniylarni qo'llab quvvatlash bo'limi
Manzil: Kattakurgon shahar Oybek kuchasi 3	Manzil: Kattaqo'rg'on t., M.Ulug'bek MFY A.Navoiy ko'chasi 4-uy
H/R 202080006380029269001	h/r 100022860182157011402259007
Bank nomi: Hamkorbank ATB Kattaqurg'on shahar filali	STIR: 207317829
MFO: 01037 STIR: 305226290	Moliya vazirligi Yagona g'azna hisobvarag'i: 23402000300100001010
Tel.: +998 93 343 66 88	Bank nomi: Markaziy bankning Toshkent shahar Bosh boshqarmasi Hisob-kitob-kassamarkasi (MURQAM)
	MFO: 00014 STIR: 001122919
 Rahbar A.Ishmuxamedov	 Rahbar I. Zirmurodov

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY
XULOSA**

XZ5275654603

1. Loyihaning turi : Shartnoma

2. Loyihaning nomi: Mahxsulot sotib olish NOMOZPOLVON MFY Baxora KVM
1000

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: KATTAQO'RG'ON
TUMAN MAXALLA VA OILANI QULLAB QUVVATLASH BO'LIMI tomonidan
14.12.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish
maqsadga muvofiq.

**Kattaqo'rg'on tuman
yuridik markazi
bosh yuristkonsulti:**



J.A.TURAYEV

14.12.2022

17.01.2018

Yagona Oyna Markazi

594111



Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida
GUVOHNOMA

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

"BAXORA KBM" Mas'uliyati cheklangan jamiyat

(Yuridik shaxsning -- tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan; boshqa to'liq nomi)

"BAXORA KBM" MChJ

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

17.01.2018

566362

ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil):

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR):

305226290

Tashkiliy-huquqiy
shakli:

Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Joylashgan joyi:

Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on shahri, OYBEK 3

Guvohnoma:

Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on shahri, YAGONA
DARCHA MARKAZI

lomonidan
berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi)

